

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro davlat universiteti
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası**

**“O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI”**

**Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2025 yil, 14-15 aprel

1

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami.
2025-yil 14-15-aprel: - Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona Nashriyoti, 2025.-675 b.

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

- | | | | |
|----|---------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | D.Sh.Yavmutov | – | Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor, DSc., prof. a‘zo; |
| 4. | A.T.Jo‘rayev | | Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor,i.f.n, a‘zo; |
| 5. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani,v.b., i.f.d., prof. a‘zo; |
| 6. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., a‘zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo; |
| 8. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a‘zo; |
| 9. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a‘zo; |
| 10 | S.S.Davlatov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a‘zo; |

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

- | | | | |
|-----|----------------|---|--|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani,v.b.,DSc., i.f.d.prof, rais muovini; |
| 3. | O‘.U.Rashidov | – | Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo; |
| 4. | O.S.Qahhorov | – | Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo; |
| 5. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, a‘zo; |
| 6. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a‘zo; |
| 7. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a‘zo; |
| 8. | S.S.Ro‘ziyev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, i.f.n, a‘zo; |
| 9. | F.K.Saidova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |
| 10. | A.D.Qudratov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |
| 11. | N.D. Salixov | - | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Xizmatlar sohasi bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlar. <https://stat.uz>

7. Malikova Shoiraxo'jayevna. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali (2024, may №5, 1064-bet) Litsenziya raqami: №046523 1194-bet

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida sug'urta tizimiga innovatsion yondashuv

Buxoro davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida o'qituvchisi
Anvarova Zarrina Saidovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz qishloq xo'jaligida sug'urta tizimiga innovatsion yondashuv haqida nazariy ma'lumotlar va amliy jihatlari o'rganilib, talkiflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta tizimi, sug'urta bozori, qishloq xo'jaligi, innovatsion yondashuv, sug'urta hodisasi, dehqon va fermer xo'jaliklari.

Аннотация. В данной статье изучаются теоретические сведения и практические аспекты инновационного подхода к системе страхования в сельском хозяйстве нашей страны и даются предложения.

Ключевые слова: система страхования, страховой рынок, сельское хозяйство, инновационный подход, страховой случай, дехканские и фермерские хозяйства.

Annotation. This article studies theoretical information and practical aspects of an innovative approach to the insurance system in agriculture in our country and makes suggestions.

Key words: insurance system, insurance market, agriculture, innovative approach, insurance case, dehqan and farms.

KIRISH.

Davlatimizda qishloq xo'jaligining sug'urta tizimidagi tendensiyalarni aniqlash, uning innovatsion yo'nalishlarini tizimga joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion yo'nalishlarni joriy etish nafaqat axborotni raqamlashtirish va uni zamonaviy telekommunikatsiya kanallari yordamida tarqatish, balki sug'urta tizimi uchun mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan zamonaviy telekommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni sifatida ham ta'riflangan.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyotiga innovatsiyaning muhim shakli sifatida raqamli texnologiyalarning tezkorlik bilan joriy etilishi dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi"¹, deb alohida ta'kidlanganligi bejiz emas³⁰⁵.

Qishloq xo'jaligidagi fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyati samaradorligiga ob-havoning keskin o'zgarishi bilan har-xil tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zarar bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun oxirga yillarda qishloq xo'jaligida sug'urta munosabatlarini keng rivojlantirish bo'yicha bir qator izlanishlar olib borilish bilan birga uning amaliy jihatlari ham keng e'tibor berildi. Ayniqsa, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Xarakatlar strategiyasida sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshqali don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 505-sonli qarori hamda 2019 yil 30 sentyabrdagi "Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda parvarishlanayotgan chorva

³⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 26 yanvar.

hayvonlarini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 830- sonli qarorlari qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini keng rivojlantirishga qaratilgan muhim xuquqiy-me'yoriy xujjatlar hisoblanadi.

"O'zagrosug'urta" davlat aksionerlik sug'urta kompaniyasi qishloq joylarida tovar ishlab chiqaruvchilar va aholiga sug'urtaviy himoya xizmatini ko'rsatadi. 189 ta hududiy bo'limga ega ushbu kompaniya qirqdan oshiq xizmat turini taklif etadi. Bu tadbirkorlarning asosiy mablag'lari, qishloq xo'jaligi ekinlarining hosili va ularni qayta ekish, korxonalarining tijorat banklari tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarni qaytarish uchun javobgarligi va hokazolarni sug'urtalashdir.

Agrosanoat ishlab chiqarishning tavakkalchilik darajasining yuqoriligi bevosita qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ahvoriga ta'sir qiladigan ob-havo sharoitiga bog'liqdir. Bu esa katta miqdorda sarmoyalar jalb qilinishga ham ta'sir ko'rsatadi. Kafolatli sug'urta himoyasining mavjudligi kredit resurslaridan foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu tarmoqqa mablag' sarflashning jozibadorligini oshiradi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida sug'urta munosabatlarni yanada rivojlantirishning ob'ektiv zarurligi quyidagilardan iborat, ya'ni:

- global iqlim o'zgarishi oqibatida tabiat xodisalarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, ayniqsa o'simlikchilik tarmog'iga ta'sirining keskin ortishi, qishloq xo'jaligi korxonalarining har yili sel kelishi, do'l yog'ishi, bo'ron, haroratning anomal tarzda ko'tarilishi, keskin sovuq oqibatida muzlashlar, zararkunanda va kasalliklar ko'payishi, suvsizlik hamda boshqa tabiat hodisalari tufayli katta iqtisodiy zarar ko'rishlari sug'urta tizimini tubdan isloh qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga investisiya mablag'larini jalb qilishni yanada rag'batlantirishda sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati. Ma'lumki, oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligini har tomonlama modernizatsiya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini texnik va texnologik jihatdan yangilash balki xo'jalik yuritish va boshqarishning yangicha shakllarini joriy qilish bilan ham tavsiflanmoqda. Bunda qishloq xo'jaligidagi xatarlarni sug'urtalashda nafaqat qishloq xo'jaligini korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash balki sug'urtaning agrar sohaga katta miqdorda investisiyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarini ishlab chiqishni va amaliyotga joriy qilishni ob'ektiv zaruriyatga aylantirdi;

- agrar sektorda turli yo'nalishlardagi agroklastlar, kooperatsiyalarni tashkil etilishi, sohaga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilinishi, davlat-xususiy sherikchilik asosidagi korxonalarining ko'payishi ular tomonidan ma'lum xatarlarga eng ta'sirchan bo'lgan qishloq xo'jaligiga katta mablag'larning sarflanishi ularni qaytmaslik xavfini sug'urtalashning yangi usullarini topishni taqozo qilmoqda;

- innovasion iqtisodiyotga o'tish, ilm-fan yangiliklarini qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarishiga keng joriy qilish sharoitida innovasion texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi xavflarni sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amaliyotiga joriy qilishni zaruriyat qilib qo'ymoqda, jumladan, innovasion jarayonga jalb etilgan mablag'lar qaytmaslik xavfini sug'urtalash, innovasion texnologiyani joriy etishdan ko'zlangan foydani ola olmaslik havfini sug'urtalash, yagona na'munada yaratilgan innovasion uskunaning zararlanishi yoki yo'qotilishni sug'urtalash va boshqalar.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalarning bir ko'rinishi sifatida elektron sug'urta turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "Kafolat" sug'urta kompaniyasining veb-saytida quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Sug'urta polisini uyingizdan chiqmagan holda daqiqada rasmiylashtirishni xohlaysizmi? www.kafolat.uz orqali arizalarni rasmiylashtiring", "Sug'urta xizmatlari mobil dasturi orqali". Ushbu jumalarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdagi innovatsion

yondashuvni, aniqroq qilib aytganda, sug'urtaning raqamlashtirilgan qiyofasini kashf etish mumkin³⁰⁶.

“O'zbekinvest” sug'urta kompaniyasi tomonidan onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan “insurance.uz” loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Sug'urta mahsuloti iste'molchilari o'zlarini qiziqtirgan sug'urta mahsulotlarini onlayn tarzda internetdagi ushbu saytdan xarid qilishlari mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda ushbu kompaniya, nafaqat, onlayn sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqda, balki sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashda ham onlayn tizimidan samarali foydalanmoqda. Shu o'rinda, sug'urta xizmatlarini mijozlarga onlayn taklif etish boshqa sug'urta kompaniyalarida ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini qayd etib o'tish zarur³⁰⁷.

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ham sug'urta bozorini yanada rivojlantirish hamda mazkur sohani raqamli texnologiyalar asosida qayta qurollantish, provardida esa, aholining sug'urta va sug'urta bozori haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganligidan hamda “... zamonaviy sug'urta bozori rivojlanishining muhim omili sohani raqamlashtirish ekanligi, u sug'urta kompaniyasining biznesi, faoliyati tavsifini hamda sug'urta xizmatlarini taqdim etish, taqsimlash va foydalanish ko'rsatkichlarini yuqori bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini oshirishligi”³⁰⁸ bo'yicha samarali amaliy xarakatlar olib borilayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib, qishloq xo'jaligi sug'urta bozorini raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish asosida samarali tashkil etish, qishloq xo'jaligi sug'urta kompaniyalari va sug'urta qildiruvchilarga tegishli ma'lumotlarning ishonchli saqlanishi va muhofaza etilishini ta'minlash choralari ko'rish, qishloq xo'jaligi sug'urta xizmatlarini global internet tarmog'i orqali xarid qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini kelgusida rivojlantirish bo'yicha bir qator nazariy va amaliy ahamiyatga molik chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni:

- qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini fermer xo'jaliklarining moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganish va sug'urtaning rag'batlantiruvchi mexanizmlarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish;

- qishloq xo'jaligida sug'urtalash tizimini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- qishloq xo'jaligi korxonalari bilan sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlash;

- sug'urta tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan majburiyatlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ta'minlanishi kerak. Bunda “Vaqtida shartnoma vaqtida to'lov” – tamoyili bo'yicha ish tashkil qilinishi zarur;

- sug'urta xodisasi sodir bo'lganda talab etiladigan hujjatlarni qisqartirilishi va tartib qoidalar soddalashtirilishi lozim;

- sug'urta bo'yicha fermer xo'jaliklarini muntazam bohabar qilib turuvchi tizim yaratilishi, axborot-kommunikatsiya rivojlangan sharoitda barcha sug'urta munosabatlari masalan shartnoma tuzish, axborot bilan ta'minlash va boshqa jarayonlar bajarilishi oson va tez bo'lishi uchun onlayn platforma yaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va yaxshi natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

³⁰⁶ “Kafolat” sug'urta kompaniyasi saytinining bosh sahifasi// www.kafolat.uz.

³⁰⁷ “O'zbekinvest” onlayn sug'urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). // www.uzbekinvest.uz

³⁰⁸ F.Ubaydullaev, Z.Umrzoqov. “Sug'urta bozorining bugungi holati va istiqbollari”. <https://uza.uz/uz/posts/sugurtabozorining-bugungi-holati-va-istiqbollari> 420317

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 26 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi "Paxta xom ashyosi va boshqoli don ekinlarining bo'lg'usi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 505-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrdagi "Aholi xonadonlarida va chorvachilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda parvarishlanayotgan chorva hayvonlarini sug'urta qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 830-sonli qarori.
4. M Sharapova. "Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'llari". "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. 22.03.2022. 1179-b.
5. "Kafolat" sug'urta kompaniyasi saytining bosh sahifasi// www.kafolat.uz.
6. "O'zbekinvest" onlayn sug'urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). [//www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz)
7. Assessment of the risk of bankruptcy of the enterprise Jan, 20 2023
8. Iqtisodiyot Transdisiplinarlik bilish www.ugb.ro/etcjild. XIV,1/2011-son 2023y 248-259.
9. "Pravda Vostoka" gazetasi Raqamli iqtisodiyot: "Taraqqiyot sari qisqa yo'l-
10. [Raqamlashtirish](#)" 17 sentyabr 2020 20199
11. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.

Xudoyqulov Husen Ahadovich

Buxoro Davlat Universiteti doktoranti

Buxoro viloyati, Buxoro shahri

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA ULARNING RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASI YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta'lim muassasalarining (OTM) global va milliy miqyosda raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Jahon ta'lim bozorida universitetlarning ilmiy salohiyati, professor-o'qituvchilar malakasi, xalqaro hamkorlik, innovatsion faoliyat, reytinglardagi o'rni va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyati kabi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston OTMlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ta'lim sifati, raqamli infratuzilma, xorijiy til bilimi, xalqaro akkreditatsiya va ilmiy-texnik loyihalarda ishtirok etish kabi strategik yo'nalishlar muhim sanaladi. Tezisdan mavjud holat, kuchli va zaif tomonlar, shuningdek, rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, reyting, innovatsiya, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati, strategik rivojlanish

HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THE DIRECTIONS OF THEIR COMPETITIVENESS LEVEL

Annotation. This paper analyzes the key factors that determine the competitiveness of higher education institutions (HEIs) at both global and national levels. In the global education market, indicators such as academic potential, faculty qualification, international cooperation, innovation activity, ranking position, and graduates' employability play a significant role. To enhance the competitiveness of Uzbek HEIs, strategic directions such as improving educational

Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT PRACTICES: REGIONAL PERSPECTIVES.....	432
To'rayev Shohrux KORXONA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING YASHIL MEXANIZMI.....	437
Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi. SUN'İY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH: XALQARO VA MILLIY AMALIYOTLAR HAMDA ISTIQBOLLI YO'NALISHLAR.....	440
Xolmo'minov Xumoyun Odil o'g'li. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning xalqaro va milliy maqsadlariga erishishda logistik xizmatlarni takomillashtirish yo'nalishlari.....	446
Yoriyeva Dilafo'z Oltinova. Buxoro viloyatini barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil qilish va raqobatbardoshligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	449
Ғафуров Олимжон Ғолиб ўғли. VALYUTA SIYOSATI USULLARI VA QARAMA-QARSHILIKLARI.....	456
Даврон Кесимов. ХУСУСИЙ ТИББИЁТНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА АҲАМИЯТИ.....	460
Qudratov Alisher Alijanovich, Bo'riboyev Qobil G'ayrat o'g'li. Korxonalarda texnologik jarayonlarni modernizatsiyalash hisobidan mahsulot tannarxini pasaytirishning moliyaviy masalalari.....	465
Зафар Мирзаев. Саноат корхоналарида иктисодий ўсишни таъминлаш.....	467
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Nuriddinova Gulsanam Bahridin qizi. O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadida kichik va o'rta biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga zamonaviy yondashuvlar.....	470
Ходжаева Дилбар Хуршидовна, КОНЦЕПЦИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	475
Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli Anvarkhonov. UZBEKISTAN'S PLACE IN THE INTERNATIONAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS RATING AND WAYS TO IMPROVE IT	478
Malikova Shoiray Baxtiyorovna XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI MODERNIZATSIYA QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA SIYOSATI VA JALB QILISH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	484
Anvarova Zarrina Saidovna, Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida sug'urta tizimiga innovatsion yondashuv.....	489
Xudoyqulov Husen Ahadovich, BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA ULARNING RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASI YO'NALISHLARI.....	492
Il sho'ba. Ekologiya va biologik xilma-xillikni asrashning ustuvor yo'nalsilari.....	498
Hamrayev Diyorjon Xonnazar o'g'li, Esanov Husniddin Qurbonovich. OQTOG' BOTANIK GEOGRAFIK RAYONI FLORASIDAGI YUKSAK O'SIMLIK LARINING O'RGANILGANLIK HOLATI.....	498
Qoriyev Mirzoxid Rustamjonovich, Solijonova Marhabaxon Sanjarbek qizi. ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA YER YUZASIDAN BUTUNLAY YO'Q BO'LIB KETGAN QUSH TURLARI.....	501
Saydaliyev Ismoiljon Nurmatovich. EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASHDA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	507
Allamurotov Akmal Lola o'g'li, Abduraimov Ozodbek Sultankulovich, Maxmudov Azizbek Valijonovich, Mavlanov Bekzod Jo'rabekovich. FERULA VARIA (SCHRENK) TRAUTV. NING GULLASH BIOLOGIYASI VA URUG' MAHSULDORLIGI.....	510
E.E.Isomov1, G.R.Djumayeva1, J.N.Mahammadiyev. ARTISHOK NAVLARINING O'SISH SHAROITIGA KO'RA QIYOSIY TAHLILI (ONTOGENEZ).....	514
Kadirova Maraljan Matyakubovna, Xikmatilloev Mirjon Xamidjonovich. OB-HAVO IFLOSLANISHINING ATROF – MUHITGA TA'SIRI.....	521
Masharipov Adamboy Atanazarovich, Atanazarov Suxrob Kadamovich. ATROF MUHIT MUHOFAZASIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AHAMIYATI.....	527